

NAZARIY BILIMLAR VA AMALIY KO'NIKMALAR UYG'UNLIGI

Xanmuratova Sayyora

—Nukus DPI talabasi

Otajonova Madina

—Nukus DPI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dars jarayonida olingan nazariy bilimlarni amaliyatga tatbiq qilish borasidagi bir qancha fikrlar yoritilgan .

Kalit so'zlar: nazariy bilim, amaliy ko'nikma , ta'lif va tarbiya ,dars texnologiyasi, malakali kadr.

Ta'lif –tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi bilim ,ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan hamda jamiyatda munosib o'rinn egallashga qodir bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Ilm-fan , texnika va ishlab chiqarish sohalarining jadallik bilan rivojlanishi barcha ta'lif muassasalarida ta'lif – tarbiya sifatini mazmun jihatdan yangi bosqichga ko'tarishni talab etmoqda. Ta'lif tizimini yuqori bosqichga ko'tarishda tafakkur va yuqori bilimga ega bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash asosiy vazifa qilib belgilangan. Shu nuqtayi nazardan , pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lif muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish , ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta'lif dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko'tarish , shuningdek , pedagogika sohasida ta'lif , ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash maqsadidda 2022-yil 21-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagogik ta'lif sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lif muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida "gi PQ -289-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorning 2-bandiga muvofiq , pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lif muassasalari kunduzgi ta'lif shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich

talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari "4+2" tartibida , shu jumladan darslarning 4 kuni oliy ta'lif muassasasida , 2 kuni maktabgacha va umumiyl o'rta ta'lif muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishi belgilangan. 2022-2023-o'quv yilidan boshlab oliy talim muassasalarida olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash dasturi yo'lga qo'yildi. Bunda har bir talab olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashi o'qituvchi va o'quvchi qanday muloqot qilishi, kiyinish va muomala madaniyati , mакtab jamoasidagi boshqa pedagoglar bilan tajriba almashinushi borasida bir qancha ko'nikmalarga ega bo'ladi. Talaba amaliyot chog'ida yetuk mutaxasislarning pedagogik mahoratini kuzatganligi , dars o'tish texnologiyalarini o'rganganligi ularning kealajakda malakali kadr bo'lib yetishishida poydevor vazifasini o'taydi. Ushbu jarayon mobaynida dars vaqtini to'g'ri taqsimlash, uni tashkil etish , o'quvchilarining psixologiyasini o'rganib , darsga jalb qilish , turli xil metodlar hamda zamonaviy axborot – texnologiyalaridan o'z o'rnida foydalanish, to'g'ri baholash va rag'batlantirish tizimini o'rganadi. Shu jumladan, o'quvchilar bilan ishslash jarayonida ta'lif va tarbiyani teng olib borishni o'rganish bo'lajak pedagogning salohiyatini oshiradi. Chunki ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek : " Tarbiya biz uchun yo hayot –yo mamot , yo najot – yo halokat , yo saodat – yo falokat masalasidir ". Zamonaviy dunyoda ta'lif oldiga qo'yilgan talablar o'zgargan, shunchaki, oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash va ularni son ko'rsatkichi bilan kifoyalanish yetarli emasligi hech kimga sir emas. Ta'lif bilan amaliyot o'rtasida chambarchas bog'liqlik bo'lishi talaba uchun oliy ta'lif muassasasida olgan bilimlari amaliyotda tayanch bo'lishi va bu bilimlarsiz yetuk mutaxassis bo'la olmasligi oddiy qoidaga , zarur ehtiyojga aylanishi lozim. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkunki , nazariy va amaliy bilimlarni uyg'un tarzda olib borish ta'lif sifatini yanada oshirishda katta ahamiyatga egadir. Ushbu o'quv dasturida nazariy bilimlar amaliy jihatdan mustahakamlanadi va mamlakat taraqqiyotining asosiy bo'g'ini bo'lgan ta'lif sohasi yuksaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ -289-sonli qarori. "Pedagogik ta'lif sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lif muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"
2. Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq" - Toshkent :Yoshlar nashriyot uyi , 2018-y.